

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР  
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ  
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

# **ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ АХБОРОТНОМАСИ**

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт, филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

**2022-5/4**

**Вестник Хорезмской академии Маъмуна  
Издается с 2006 года**

**Хива-2022**



<b>Rasulova M.A.</b> Sociolinguistic aspect of the normativity of the modern English language .....	127
<b>Ro'ziyeva J.E.</b> Nemis tilida modalikni ifodalovchi leksik vositalar .....	129
<b>Shirova M., Rakhimova Yu.</b> The problem of bilinguality in Germany .....	131
<b>To'yboeva Sh.R.</b> O'zbek va fransuz sistem tilshunosligida sodda gap qurilishi talqini .....	134
<b>Umarova M.U.</b> Phraseology of the English language .....	137
<b>Yusupova Z.K.</b> Methodology for monitoring educational activities in distance learning of a foreign language .....	140
<b>Zauniyeva H.Sh., Qadirova R.J.</b> Badiiy tarjimalar pragmatikasining o'ziga xos xususiyatlari talqini .....	143
<b>Камалов У.А.</b> Лексические средства выражения опгативной модальности в русском и узбекском языках .....	145
<b>Каримова Ж.Ш.</b> Фразео - синонимический ряд и проблема доминанты .....	148
<b>Очилов У.С.</b> Абдулла Кодирийнинг "Обид Кетмон" кссаси - коллективлаштиришни ўзгача талқин қилган асар .....	151
<b>Рахимова С.Ж.</b> Ибораларда кўп маънолик шакллари .....	154
<b>Садуллаев Ф.Б.</b> Равишнинг бир даража кўрсаткичи хусусида .....	157
<b>Турдалиева Д.С.</b> Паремиялар нуқтаси ҳаракатлар сифатида .....	159
<b>Усмонова З.Х.</b> Стивен Кингнинг "Ўлик минтақа" ("Dead zone") асарида «the laughing tiger» образ талқини .....	161
<b>Хусанова М.А.</b> Поэтик асарда риторик сўроқ гапларининг экспрессив имконияти .....	165
<b>Чориева М.М.</b> Чет тилини ўрганиш жараёнида маданиятлараро алоқаларнинг ўрни .....	167
<b>ПЕДАГОГИКА ФАҲЛЛАРИ</b>	
<b>Kasimova M.B.</b> Nofilologik oliy o'quv yurti rus tili darslari jarayonida talabalarning faollik darajasini oshirishni takomillashtirish .....	170
<b>Nurutdinova M.S.</b> Oliy o'quv muassasalari talabalariga o'zbek tili sohada qo'llanilishi fanining ahamiyati .....	172
<b>Burxonova G.M.</b> Milliy guruhlarda rus tilini o'qitishda talabalarning nutq qobiyatlarini takomillashtirish .....	175
<b>Alibekova R.X.</b> Rus tili darslarida ta'lim texnologiyalaridan foydalanishining shakllanishini takomillashtirish .....	177
<b>Egamnazarova Z., Ne'matova N.M.</b> Animatsion yondashuv asosida talabalarga rus tili o'qitishning metodikasi va texnologiyasi .....	180
<b>Mamedova N.Z.</b> Nofilologik oliy o'quv yurtlarida rus tilini mutaxassislik sohalarida bo'yicha o'qitishning muamolari .....	182
<b>Rizaeva K.</b> Modern technology in the teaching foreign language .....	185
<b>Nasretdinova F.N.</b> Innovative technologies of professional training .....	187
<b>Djumaniyazova E.Q.</b> The effectiveness of innovative educational technologies in the study of foreign languages .....	190
<b>Umarova F.N.</b> Features of the formation and development of communicative competence in the study of a foreign language among students of a technical university .....	193
<b>Berdiyeva M.X., Mavlonova M.U.</b> Developing student's creative activity based on an integrative approach .....	195
<b>Алленова Н.В., Ташева У.Т., Цигулева М.В., Данилина Ю.С.</b> Возможности применения технологии веб-квеста в преподавании русского языка .....	198
<b>Базарова Н.Ш.</b> Методы применения инновационных образовательных технологий на уроках русского языка .....	200

**O'ZBEK VA FRANSUZ SISTEM TILSHUNOSLIGIDA SODDA GAP QURILISHI  
TALQINI**

*Sh.R. To'yboeva, Buxoro davlat universitet, o'qituvchi, Buxoro*

**Annatsiya.** Sodda gap qurilishi haqida umumiy ma'lumot va fransuz tilidagi binar qurilmali gaplarning xarakterli xususiyatlarini tahlil qilish. Og'zaki nutq va zamonaviy o'zbek va fransuz adiblarining asarlaridan olingan misollar tahlil ob'yekti sifatida olinib, ularning tarjimai qiyosiy tahlil etildi.

**Kalit so'zlar:** binar, GSHG, SFSHSG, kanonik model, tipik, atipik, sintaksis, aktant, valentlik, nutqiy hosila, predikat, qolip, oppositsiya, izohlovchi, izohlanmish, verbal, averbal, yadro, negativlik.

**Аннотация.** Общие сведения о построении простых предложений и анализ характеристик бинарных предложений на французском языке. В качестве объекта анализа

**XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI -5/4-2022**

135

были приняты устные речи и примеры произведений современных узбекских и французских писателей, сопоставлены их переводы.

**Ключевые слова:** бинарный, каноническая модель, типичная, нетипичная, синтаксис, актант, валентность, речевая производная, предикат, оппозиция, интерпретатор, интерпретируемый, вербальный, невербальный, ядро, негативность.

**Abstract.** General information about the construction of simple sentences and analysis of the characteristics of binary sentences in French. Oral speech and examples from the works of modern Uzbek and French writers were taken as the object of analysis, and their translations were compared.

**Keywords:** binary, GSHG, SFSHSG, canonical model, typical, atypical, syntax, actant, valence, speech derivative, predicate, pattern, opposition, interpreter, interpreted, verbal, averbal, nucleus, negativity.

**Kirish.** O'zbek tilimiz mustaqillikka erishganimizdan so'ng mafkuraviy asoratlardan qutulgan bo'lsada dunyo miqyosida o'z mavqei, o'zini topishi uchun ancha mehnat va samara talab etadi. Tilshunoslarimizning bugungi yutuqlariga nazar tashlar ekanmiz, ularning ilgari tuzum yo'nalishidan tubdan farqlanib borayotganiga guvoh bo'lamiz. Ayniqsa, Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida o'zbek tilshunoslari tilshunoslikning barcha yo'nalishlarida ijobiy natijalarga erishishdi. O'zbek tili bilan xorijiy tillarni qiyoslab o'rganish maktablari yaratildi. Hozirda esa qiyosiy-tipologik, sintaktik aspektda yechimi kutilayotgan ishlar ko'lami juda ko'p. Shulardan biri sifatida nutqiy hosilalarning alohida turi – binar qurilmali gaplar tadqiqi muammosidir. Bunday gaplar haqida to'xtalishdan oldin gapga ta'rif berishni joiz deb topdik.

**Asosiy qism.** Tilshunos-olim predikativlik gapning mantiqiy grammatik va qurilish shakli aspektlarida namoyon bo'lishini ta'kidlaydi. Shu sababdan u predikativlikni ega va kesim (qurilish darajasiga ko'ra), hodisa va voqelik (kommunikativlik maqsadiga ko'ra), shuningdek, subyekt va predikat (mantiqiy, hissiy-emosional va ma'noviy holatiga ko'ra) ning o'zaro hukm (logik) munosabati asosida belgilashni ma'qullovchi-nazariyotchilarning biriga aylandi. Uning nazariy qarashlaridapredikativlik, ya'ni mantiqiy hodisa bilan grammatik hodisa qorishtirib ta'riflandi. Shu tarzda g'arb tilshunosligida hozirgacha gapning ikki tarkib ("Ega-kesim") dan iborat bo'lishi, egasiz gaplarning bo'lishi mumkin emasligi haqidagi ta'limot – subyektning hokimligi, predikatning unga tobeligi bilan, ya'ni mantiqiy hukm bilan mustahkamlandi. Shuning uchun dastavval, o'zbek tili sintaksisini o'rganishda ham ega yo'nalishi bosh yo'nalish qilib qabul qilindi. Shu asnodda prof. A.G'ulomov, G'.Abdurahmonov, M.Asqarovalarning tadqiqot ishlarida sodda va qo'shma gaplar haqidagi mukammal ta'limot ishlab chiqildi. Sodda gapning sintaktik qurilishi rus tilshunosligi negizida yaratilgani bois gapning minimal qurilishi ikki bosh bo'lak (ega va kesim)li degan yondashish, sodda gap qurilishi talqinida tayanch yo'nalish mavqei kashf etdi. Qo'shma gap sintaksisi ham shu yo'nalishda o'z rivojini topdi.

XX asr oxirlaridan ayrim tilshunoslar sistem-struktur tilshunoslik talablarini yoqlab, turkiy tillar uchun gapning eng kichik qurilish qolipini kesimlikda ko'rishni taklif qilishdi. Qator ilmiy ishlarda (M.Abuzalova, Sh. Akramov, M.Bohmonov, Z.Eraliyeva, B.Mengliyev, L.Raupova, R.Sayfullayeva va boshqalar sodda va qo'shma gaplarni o'rganishda) shunga amal qilindi.

M.Abuzalova [WPm]

larini "shakl-vazifaviy talqin bo'yicha soda gapning eng kichik qurilish qolipi" deb baholab, uning nutq sharoitida minglab muayyan shakllarda yuzaga chiqishini ta'kidlaydi: "[WPm] gapni o'rganish uchun til sathidagi eng kichik qolip hisoblanadi va u gapning "joni"dir",-deya, muallif sodda gapning xuddi mana shu lisoniy qolipi o'zining modal, shaxs-son, zamon va makon kengaytiruvchilari bilan morfologikkategoriya sanalib, kesimlik kategoriyasi sifatida tan olinishiga hech kim monelik qilmasligini ta'kidlaydi. Mazkur ish izidan R.Bobokalonov, H.Nematov, L.Raupovalarning so'z -gaplar, aniqrog'i, semantik-funksional shakllangan so'z-gap (qisq. SFSHSG) lar muammosi ham o'z yechimini topdi.

Biz shunga muvofiq,tizimga solinmagan binar qurilmali gaplarning xususiyatlari, ularning nutqda ifodalanishi, badiiy adabiyotlarda qay tarzda ifoda etilganligini sistem-struktur tilshunoslik nuqtai-nazaridan tadqiq etishni lozim deb topdik. Shunday qilib, o'zbek tilidagi gaplarning qurilishi:

a) Grammatik shakllangan gaplar (GSHG)b) semantic-funksional shakllangan gap (SFSHG) napra;

Fransuz tilida esa:a) tipik b) atipik gaplarga ajratiladi. Fransuz tilida gap qurilishi atipik hodisa sifatida kanonik model bilan izohlanadi va tipik gaplarga nisbatan ziddiyatga qo'yiladi.

Biz tadqiqot ishimizning asosiy mavzusi sanalmish binar konstruksiyani aynan ana shu kanonik modelli gaplar tarkibiga kiritamiz. Dastlab, kanonik model to'g'risida to'xtalib o'tsak.

Funksional jihatdan har ikki tilda ham bunday gaplarning sintaktik tizimi, vazifa bajarishi gap markazida kela olishi bilan bog'liq muammolar leksik-semantik va funksional-sintaktik jihatdan to'laqonli o'z yechimini topmagan. Kanonik modelli atipik gaplarni o'zbek tilidagi WP qurilishli SFSHSGlar bilan qiyoslash, nutqiy hosilalarning o'sib borishini, tabiatini, leksik-semantik xususiyatini o'rganish, ularni tizimga solish va chegaralarini belgilab olib, nazariy va amaliy jihatdan fikr yuritish mumkin.

Alohida tadqiqot oldiga qo'yilgan muammoli masalalarni yechimini topish uchun ham qiyosiy-tipologik aspektida har ikkala tillardagi o'ziga xosliklarni aniqlashtirish, nutqiy va lisoniy hodisalarni farqlash, tizimning kommunikativ tamoyillarini o'rganish va yaratish, ularni struktur ta'limot asosida tahlil qilish tanlangan mavzuning oldiga qo'yilgan bosh maqsaddir.

O'zbek tili sintaktik qurshovida SFSHSG larning ma'no imkoniyatlari chegaralanganligi, o'zida grammatik shakl talab etmasligi, boshqa so'zlar (va gap bo'laklari) bilan semantik jihatdan aloqaqa kirishish qobiliyatidan mahrumligi, ular gap bo'lagi sanalmasligi va gapdagi bo'laklar bilan bog'lanmasligi singari belgilari aniqlashtirilgan. Fransuz tilida esa bu belgilar turlicha aralash va farqli ravishda kuzatiladi. Shuningdek, SFSHSG lar tarkibida uchramaydigan ammo shularga yaqin turadigan binar konstruksiyali gaplar kanonik modelli (alohida o'ziga xos qurilish) gaplar tarkibiga kiritiladi.

SFSHSG lardagi xos xususiyat shundaki, [WPm] – tipik gaplar ifodalagan morfologik ko'rsatkich moddiy shaklda ifodalanmaydi. Bunday gaplar [Pm] ga xos bo'lgan har xil ma'nolarni qabul qila olmaydi. Buning asosiy sababi bunday gaplarda mayl/zamon, tasdiq/inkor, hatto shaxs/son ma'nolari gap sifatida voqelanuvchi so'zning leksik ma'nosida mujassamlashgan bo'ladi, ya'ni SFSHSG larda ham tasdiq/inkor, mayl/modallik, zamon va shaxs/son ma'nolarining mavjudligi e'tirof etiladi. Chunki nutqimizda shunday gaplar borki, ularning tarkibida kesimlik belgilari va kesimlik qo'shimchalarining moddiy ko'rinishlarini ko'rinmaydi, ammo semantik nuqtai nazardan mavjudlik seziladi. Har bir gapning o'z qolipi mavjud bo'lgani kabi binar qurilmali gaplar ham o'ziga xos muayyan bir lisoniy qurilish qolipi bo'lishi kerak. Shu sababli ular sodda gap tarkibida boshqa so'z yoki gap bo'lagiga tobelanib kela olmaydi.

Kesimlik ma'nosi so'z-gaplarning lug'aviy ma'nosida mujassamlanganligi sababli ularning minimal qolipini alohida ramz - [W<sup>o</sup>] shaklida berish mumkin. [W<sup>o</sup>] -da kesimlik ma'nolari binar konstruksiya bo'lishi mumkin bo'lgan leksik birlikning lug'aviy ma'nosiga ishora bor. Sodda gapning binar qurilishida esa sintaktik aloqaning vositachi unsurlari uchramaydi, lekin qismlar ma'lum va muayyan pauza (ohang) orqali o'zaro bog'langanliklari seziladi. Kesimlik belgisi ko'rinmaydi, ya'ni (WPm) qolipli gaplardan farqli o'laroq (WP) ramzida beriladi:



Bunday leksik birliklarning ichki ma'noviy turlarida tasdiq/inkor [N], modallik [M], zamon [T], shaxs-son [P] ma'nolarining yetakchiligi va bo'rtirilganligi quyidagicha: a) modallarda [MNPT]; b) tasdiq/inkorlarda – [NPTM]; c) taklif/xitoblarda – [PTMN]; d) undovlarda – [TMNP].

Kesimlik ketegoriyasi ma'nosi, birinchidan, bu so'zlarning semantic strukturasi shakllanganligi sababli SFSHSG, avvalo, kesimlik ko'rsatkichlari bilan birikib kelolmaydi, biroq mustaqil holda gap bo'lib kelaveradi. Ikkinchidan, boshqa gap tarkibiga kirsam ham, uning tarkibiy qismlari (ega, kesim, aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol) bilan tobe-hokim aloqalariga kira olmaydi, ammo ergash yoki mustaqil teng munosabatli qo'shma gaplar komponentlari bilan tobe yoki hokim tobe yoki hokim munosabatda bo'ladi.

**Xulosa.** Ta'kidlash joizki, til va nutq, ularning mazmuni va shakli o'rtasidagi munosabatlar juda murakkab va xilma-xildir. Bizga ma'lumki, sintaktik qurshovda SFSHSG larning ma'no imkoniyatlari chegaralanganligi, o'zida grammatik shakl (qo'shimchalar) talab etmasligi, boshqa so'zlar (va gap bo'laklari) bilan semantik jihatdan aloqaga kirishish qobiliyatidan mahrumligi, gap bo'lagi sanalmasligi va gapdagi bo'laklar bilan bog'lanmasligi singari belgilari mavjud. Fransuz tilida esa bu belgilar to'liq asos qilib olinmagan. Biroq SFSHSG larga o'xshash bir xil tipdagi alohida gaplar:

- 1) *binar konstruksiya*-Parsesieux, ce garçon.
- 2) *prezantativ* - Voici, **voila** la villa!
- 3) *nominativ* -**Le héros**.
- 4) *muallif gapi* -Allons au theatre, *dit Philippe*.
- 5) *kiritma* - Ça sera tres bien, **je crois**.
- 6) *so'z-gaplar* -**Ça va?**

birgalikda kanonik model, ekanligi ya'ni alohida o'ziga xos qurilishga ega bo'lishi tadqiqotlarda e'tirof etilmoqda.

SFSHSG lar va binar konstruksiyali gaplarning farq qiladigan jihatlari bo'lsada ularning umumiy mohiyati bir. Har ikkala nutqiy hosilalarda kesimlik belgilari uchramaydi. Shular sabab, o'zbek tilimizdagi SFSHSG lar fransuz tilidagi atipik gaplarga to'g'ri keladi, deb ayta olamiz va dissertatsiya ishimizda ma'lum bir tizimga solishga harakat qilamiz.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Абдурахмонов Х., Қўшма гап синтаксиси асослари.Т.: Фан, - 1958. -325 б.
2. Абузалова М. Бобокалонов Р. Фразеологик birliklarning leksik ma'no butunligi //TAT,1999. № 3, 47-52 б.
3. Бобокалонов Р. Олий ўқув юрталарида синтаксисни ўрганishning klassesiy-tipologik masalalari // TAT, 2004, 6-сон, 74-78 бетлар.
4. Ramazonovna T. S. On binary structured speech products in french //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2021. – Т. 10. – №. 10. –с. 381-386